SURXONDARYODA KUTUBXONACHILIGIDA QO'LLASH MUMKIN BO'LGAN JAHON TAJRIBASI

TerDU "O'zbekiston tarixi va manbashunoslik" kafedrasi tayanch doktoranti
Egamov Nazirbek Nurullayevich
+998942067377
naziregamov7@gmail.com

Annotatsiya: *Kutubxonachilik sohasining modernizatsiyasi nafaqat texnik jihozlash bilan, balki boshqaruv tizimini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida qayta tashkil etish bilan ham izohlanadi. Bu jarayonda avtomatlashtirilgan kutubxona tizimlari, elektron kataloglar va onlayn xizmatlarning joriy qilinishi muhim o'rin tutdi. Viloyatda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali kutubxonalar axborot markazlariga aylantirildi.*

Kalit so'zlar: *kutubxona, elektron kataloglar, 3D chop etish, LIANZA, OCLC, IYALI, CAUL, Bibliomist, jahon tajribasi.*

МИРОВОЙ ОПЫТ, КОТОРЫЙ МОЖНО ПРИМЕНИТЬ В УПРАВЛЕНИИ БИБЛИОТЕКАМИ В СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

ТерДУ «Узбекистан история и источниковедение» главный докторант кафедры
Эгамов Назирбек Нуруллаевич
+998942067377
naziregamov7@gmail.com

Аннотация: *Модернизация библиотечной сферы обусловлена не только техническим оснащением, но и реорганизацией системы управления на основе современных информационных технологий. Внедрение автоматизированных библиотечных систем, электронных каталогов и онлайн-сервисов сыграло важную роль в этом процессе. Благодаря внедрению инновационных технологий в регионе библиотеки были преобразованы в информационные центры.*

Ключевые слова: *библиотека, электронные каталоги, 3D-печать, LIANZA, OCLC, IYALI, CAUL, Bibliomist, мировой опыт.*

WORLD EXPERIENCE THAT CAN BE APPLIED IN LIBRARY MANAGEMENT IN SURKHANDARYA

TerDU "Uzbekistan
history and source studies"
the main doctoral student of the department
Egamov Nazirbek Nurullayevich
+998942067377
naziregamov7@gmail.com

Abstract: *The modernization of the library sector is explained not only by technical equipment, but also by the reorganization of the management system based on modern information technologies. The introduction of automated library systems, electronic catalogs and online services played an important role in this process. Through the implementation of innovative technologies in the region, libraries were transformed into information centers.*

Keywords: *library, electronic catalogs, 3D printing, LIANZA, OCLC, IYALI, CAUL, Bibliomist, world experience.*

2000–2025 yillarda Surxondaryo viloyati kutubxonachilik tizimida tub islohotlar amalga oshirildi, ular asosan kutubxona xizmatlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish va aholining axborotga bo‘lgan ehtiyojini yuqori darajada qondirishga qaratildi.

Kutubxonachilik sohasining modernizatsiyasi nafaqat texnik jihozlash bilan, balki boshqaruv tizimini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida qayta tashkil etish bilan ham izohlanadi. Bu jarayonda avtomatlashtirilgan kutubxona tizimlari, elektron kataloglar va onlayn xizmatlarning joriy qilinishi muhim o‘rin tutdi. Viloyatda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali kutubxonalar axborot markazlariga aylantirildi. An’anaviy kitob berish jarayoni elektron resurslardan foydalanish, multimedia xonalarini yaratish va masofaviy xizmatlarni yo‘lga qo‘yish bilan boyitildi. Sohada kompyuter texnologiyalarining joriy etilganligi, elektron kutubxonaning tashkil qilinganligi, ijtimoiy tarmoqlar orqali ham kitobxonlarning kutubxonaga jalb etilganligi sohani bir qadar zamonaviylashtirdi. Ammo onlayn kutubxona foydalanuvchilarining faollik darajasi anch past ekanligi ko‘zga tashlandi.

Axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish davlatning ilmiy-texnik taraqqiyot siyosati bilan bevosita bog‘liq bo‘ldi. Kutubxonalar ilmiy ma’lumotlarni tezkor tarqatish, yangi ilmiy ishlanmalarga ochiq kirish imkonini ta’minlash orqali mamlakat intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qildi. Surxondaryo viloyati

kutubxonalari milliy va xalqaro elektron ma’lumotlar bazalariga ulanish imkoniyatiga ega bo‘ldi, bu esa o‘quvchilar, talabalar va ilmiy xodimlarning ilmiy axborotga erkin kirishini ta’minladi.

2000-yillardan boshlab kutubxonachilik faoliyatida madaniy-ma’rifiy tadbirlarning ko‘lami kengaydi. Kitobxonlikni targ‘ib etuvchi loyihalar, adabiy uchrashuvlar, tarixiy-madaniy merosni targ‘ib qilishga qaratilgan ko‘rgazmalar muntazam o‘tkazildi.

2000–2025 yillarda qabul qilingan qator davlat dasturlari va farmonlar kutubxonachilikni rivojlantirishning huquqiy asosini mustahkamladi. Bu hujjatlar moddiy-texnik bazani kuchaytirish, yangi axborot-resurs markazlarini tashkil etish va fondlarni boyitishga xizmat qildi. Kutubxonalar faoliyatining ijtimoiy ahamiyati oshdi, ular nafaqat kitob tarqatish markazi, balki mintaqa aholisining madaniy-ma’naviy hayotida faol ishtirok etuvchi ilmiy-ma’rifiy muassasalar sifatida shakllandi.

2000-2025-yillarda Surxondaryoda kutubxonachilik sohasining harakatlantiruvchi kuchi sifatida Adib Sobir Termiziy nomidagi viloyat markaziy kutubxonasi va G‘afur G‘ulom nomidagi viloyat bolalar kutubxonasi asosiy rol o‘ynadi. Tumanlardagi markaziy kutubxonalar ham bevosita viloyat markaziy kutubxonasi negizida rivojlanib bordi. Tuman kutubxonalariga kitob yetkazib berish, ularning faoliyatini nazorat qilish, monitoring olib borish hamda viloyatdagi barcha kutubxonalar faoliyati bo‘yicha Madaniyat boshqarmasiga har yillik hisobotlarni topshirish vazifasini ham Adib Sobir Termiziy nomidagi viloyat AKM amalga oshirib keldi. Xalq ta’limi tizimi maktablaridagi kutubxonalar esa viloyat bolalar kutubxonasi ko‘magida faoliyat olib bordi.

2000-2025-yillarda viloyat kutubxonalaridagi kitob fondlarida o‘sish kuzatildi, ammo viloyatdagi kutubxonalarning hech biri ilmiy adabiyotlar masalasida maqtanarli natijalarga erisha olmadi. Tadqiqotchilar yillar davomida ilmiy adabiyotlar yetarli bo‘lmaganligi sababli ularni, asosan, Toshkentdagi kutubxonalardan izlashga majbur bo‘ldilar. Bundan tashqari kutubxonalar Surxondaryo viloyat davlat arxivi bilan yetarli darajada hamkorlik olib bormadi, 2005-2006-yillardan keyin kutubxonalar haqidagi statistik ma’lumotlar va yillik hisobotlar davlat arxiviga topshirilmadi. Bu esa kutubxonalar faoliyatini o‘rganish va ularni monitoring qilish ishini ancha qiyinlashtirdi.

Kutubxonachilikdagi kadrlar masalasini hal qilish uchun jahon tajribasidan namuna olish muhim. Bu borada Yangi Zelandiya kutubxonachiligi oliy standartlarga asoslangan professional tizim yaratgan. LIANZA (Yangi Zelandiya Kutubxonachilik Assotsiatsiyasi) 2007-yildan boshlab professional kadrlarni ro‘yxatga olish tizimini joriy etdi. Unga ko‘ra, kutubxona va axborot mutaxassislari professional talablarga

javob berishlari lozim (magistr darajasi, etika kodeksi, amaliy tajriba). Har uch yilda xodimlarning malakasi qayta tekshiriladi, shaxsiy rivojlanish jurnalini yuritish majburiy. Bu tizim mutaxassislar sifatini kafolatlaydi, doimiy rivojlanish uchun tizimli yondashuvni ta'minlaydi.

2000-yillarda AQShdagi Charlotte and Mecklenburg County kutubxonasi o'z xodimlari uchun Learning 2.0 dasturini ishlab chiqdi. Dasturdan maqsad xodimlarni Web 2.0 vositalari (bloglar, podkastlar, Flickr, YouTube va boshqalar) bilan tanishtirish edi. Qisqa muddatda bu o'z-o'zidan keng tarqalgan o'quv tizimiga aylandi va butun dunyoda kutubxonalar va boshqa muassasalar o'rtasida qo'llanila boshladi. Natija shunday bo'ldiki, texnologik barqarorlik, xodimlar ichidagi innovatsiya kuchaydi va yangi media vositalaridan foydalanish qulaylashdi.

AQShdagi OCLC (Online Computer Library Center) tashkiloti o'zining WebJunction (kutubxonalar uchun mo'ljallangan o'quv va hamkorlik) platformasi orqali har qanday kutubxonaga bepul professional rivojlanish imkoniyatini beradi. Unda yuzlab onlayn kurslar, vebinarlar, amaliy ma'lumotlar mavjud. Bu platforma kichik shahar va qishloq kutubxonalari uchun ham moslashuvchan o'qitish usulini yaratadi, xarajatni kamaytiradi va xodimlarni yangilanishga undaydi.

IYALI (Initiative for Young African Library Innovators) tashkiloti yosh mutaxassislar o'rtasida tarmoq yaratish va yangi fikr almashuvi uchun mo'ljallangan dastur yaratgan. Bu dastur kutubxonachilik sohasida yetakchilik va ijtimoiy hodisalarga moslashuvchanlikni kuchaytiradi.

Ukrainaning Bibliomist dasturi esa 2009-yildan boshlab jamoat kutubxonalarini texnologik o'zgarishga tayyorlashga qaratilgan bo'lib, u 1800 kutubxonaga texnologiya yetkazdi, kutubxona xodimlari uchun 25 ta trening markazi tashkil etdi, mahalliy jamoalarni internet va raqamli xizmatlar bilan tanishtirishga ko'maklashdi. Natijada kutubxona yangi axborot markazlari sifatida jamoa uchun muhim xizmatlar ko'rsatishga kirishdi.

CAUL (Council of Australian University Librarians) akademik kutubxonalarni konsorsium orqali birlashtirib, konsorsium orqali professional rivojlanish yondashuvlari, statistika almashinuvi va hamkorlik platformasini yaratdi. Bu yondashuv kutubxonachilik xodimlarining boshqaruv va yetakchilik ko'nikmalarini barqaror rivojlantirishga xizmat qildi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, kutubxona sohasi xodimlari muammosini hal qilish uchun uch asosiy yo'nalishda harakat qilish kerak bo'ladi: uzluksiz ta'lim, kadrlar malakasini oshirishning tizimli mexanizmi va kutubxonachilarni jamiyatning intellektual elitasiga aylantirish. Surxondaryo viloyatida ushbu yondashuvlarni joriy etish quyidagi ilmiy asoslangan choralarni talab qiladi:

Birinchidan, uzluksiz kasbiy rivojlanish modelini yaratish zarur. Yangi Zelandiya tajribasidagi kabi professional akkreditatsiya tizimi yo‘lga qo‘yilishi lozim. Bunda har bir kutubxonachi o‘z faoliyatini uch yillik davrda qayta sertifikatlab boradi. Bunday tizim nafaqat mutaxassisning bilimini doimiy ravishda yangilab turadi, balki kutubxona xizmatining sifatini ham oshiradi. Shu jarayonda Termiz davlat universiteti va Toshkent axborot texnologiyalari universiteti bilan hamkorlikda qisqa muddatli sertifikat kurslarini tashkil etish mumkin.

Ikkinchidan, texnologik va innovatsion ko‘nikmalarni rivojlantirish asosiy ustuvor yo‘nalish bo‘lishi kerak. AQShda yaratilgan Learning 2.0 dasturi tajribasiga asoslanib, Surxondaryo kutubxonalari xodimlari uchun ham raqamli savodxonlik bo‘yicha bosqichma-bosqich o‘quv dasturlari ishlab chiqilishi lozim. Bu dastur orqali kutubxonachilar nafaqat elektron kataloglar va ma’lumotlar bazalari bilan ishlashni, balki foydalanuvchilarga masofadan xizmat ko‘rsatish, ijtimoiy tarmoqlarda kutubxona faoliyatini yuritish, elektron resurslarni targ‘ib qilish bo‘yicha ham yangi ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

Uchinchidan, yosh va istiqbolli mutaxassislarni tayyorlash va jalb qilishga e’tibor qaratish muhim. Afrikadagi IYALI dasturi singari yosh kutubxonachilarni qo‘llab-quvvatlash dasturi yaratilsa, viloyatdagi ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda bu soha uchun iqtidorli yoshlarni tanlab olish va ularni amaliyotga jalb qilish imkoniyati oshadi. Shu maqsadda viloyat kutubxonachiligi bo‘yicha “Yosh liderlar akademiyasi” tashkil etilib, u yerda tajribali kutubxonachilar o‘z tajribalarini yosh mutaxassislarga o‘rgatsa o‘ylangan maqsadga erishish mumkin.

To‘rtinchidan, onlayn ta’lim va hamkorlik platformalaridan keng foydalanish zarur. OCLC ning WebJunction platformasi misolida Surxondaryo kutubxonalari uchun onlayn o‘quv va hamkorlik portali yaratilsa, xodimlar Toshkent yoki boshqa markaziy shaharlarga bormasdan turib, onlayn treninglarda qatnashib malakasini oshirish imkoniga ega bo‘ladilar.

Beshinchidan, menejment va yetakchilik ko‘nikmalarini shakllantirish lozim. Avstraliyada CAUL konsorsiumi orqali amalga oshirilgani kabi viloyat miqyosida kutubxonalararo hamkorlikni kuchaytirish, tajriba almashish, loyihalar yaratish va boshqaruv malakasini oshirish bo‘yicha qo‘shma dasturlar ishlab chiqilishi kerak.

Mamlakatimizda kitobxonlikni rivojlantirish uchun sharoitlar bor, anchagina amaliy ishlar ham bajarilmoqda, ko‘pgina hududlarda yangi, zamonaviy kutubxonalarning paydo bo‘layotgani ham quvonarli holat. Masalan, Prezident matbuot xizmati O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Bo‘ka tumanida tashkil etilgan Madaniyat va ma’rifat ekoparkini borib ko‘rgani va u yerda yoshlar uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishgani haqida xabar qilar ekan, unda Shavkat Mirziyoyevning ushbu bog‘dagi kutubxonani kirib ko‘rgani va O‘zbekistonda

kitobxonlik haqida o‘z fikrlarini bildirganini aytadi. Prezidentimiz bu masala haqida shunday fikrlarni bildirgan: “Hududlarga kitob yetkazib berish yaxshi. Lekin ularni o‘qish, o‘qitish yetarli darajada emas. Bolalarimizni bog‘cha yoshidan, boshlang‘ich sinflardan kichik-kichik kitoblarga o‘rgatish, shu orqali ularni kitobsevar etib ulg‘aytirish zarur. Shundagina jamiyatimizda kitobxonlik muhiti shakllanadi, boshqalar ham kitob o‘qishga qaytadi". Darhaqiqat, davlat rahbari tomonidan aytilgan bu gaplar sohada qilinishi kerak bo‘lgan ishlar va vazifalarga chuqurroq yondashishni talab etadi.

Undan tashqari mamlakatimiz rahbarining 2018-yil 12-maydagi “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi “2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 26-dekabrdagi “Yoshlarning kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan “Yosh kitobxon” tanlovini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorlari mamlakatimiz aholisining mutolaa madaniyatini yuksaltirish va kitobxonlikni ommalashtirishga xizmat qilishi kerak.

Kitobxonlik darajasini ko‘tarish borasida xalqaro hamjamiyatning tajribasiga murojaat qiladigan bo‘lsak, ba’zi mamlakatlarda kutubxonalar endi faqat kitobxonlar uchun emas, balki ijtimoiy yordam, sog‘liq va ruhiy tavsiyalar beruvchi markazlar sifatida ham xizmat qilmoqda. Masalan, Irlandiya kutubxonalarida qo‘shimcha xizmatlar - yozuv studiyalari, 3D chop etish, san’at guruhlari, hatto ruhiy salomatlik bo‘yicha mashg‘ulotlar olib boriladi. Bu chora-tadbirlar bevosita kutubxonaga qatnovlarni oshirmasdan qolmaydi.

AQShning Indiana universitetida Learning commons (o‘qish bilan bog‘liq qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratilgan joy) ochilgach, kutubxonaga tashrif buyuruvchilar soni 110%ga oshgan.

Ko‘plab davlatlar kutubxonalari faoliyatiga sun’iy intellekt kirib kelmoqda. Bundan kutubxonalar unumli foydalanishlari mumkin. Masalan, ko‘rishi cheklangan foydalanuvchilar uchun kutubxonalar sun’iy intellekt asosida yordamchi dasturlar yaratish, matndan nutqqa o‘tkazish, yo‘nalishlar taqdim etish tizimlarida keng foydalanishi mumkin. Bu ko‘rishda nuqsoni borlarning kutubxonadan foydalanishini yanada osonlashtiradi. So‘nggi tadqiqotlar sun’iy intellekt tahliliy texnologiyalar orqali kutubxonalarning imkoniyatlarini yanada kengroq oshirishi mumkinligini ko‘rsatyapti.

Kutubxonalar o‘rtasida integratsiyani kuchaytirish ham kitobxonlikni oshirishi jahon tajribasida kuzatilmoqda. Bibliomist (Ukraina) dasturi 1800 ta kutubxonani raqamli tarzda birlashtirib, foydalanuvchilar sonini 3 barobarga oshirgan.2024-yilgi

ijtimoiy tadqiqotlarga ko‘ra, AQSh, Hindiston, va Buyuk Britaniya eng ko‘p kitob o‘qiydigan mamlakatlar qatorida yetakchi bo‘lib, bir yilda har bir fuqaro o‘rtacha 15–17 ta kitob o‘qishi aniqlangan, bu yiliga taxminan 350–360 soat o‘qishga teng. Yevropada Finlyandiya, Polsha, Estoniya, Shvetsiya va Fransiya ham bir kunda o‘rtacha 1 soat atrofida o‘qish bilan yuqori ko‘rsatkichlarga ega. Bundan tashqari, Tailand aholisi haftasiga taxminan 9 soat (488 daqiqa), Xitoy aholisi esa haftasiga 8 soat (480 daqiqa) o‘qiydi.

Hindistonda o‘qish odati yuqori — haftasiga o‘rtacha 10 soat 42 daqiqa o‘qish vaqtiga teng. Bu natijalar ta’lim tizimi, yirik kutubxonalar tarmog‘i va o‘quvchilarni rag‘batlantirishni ta'minlovchi keng ko‘lamli milliy harakatlar orqali qo‘llab-quvvatlanadi.

Amerikada kitob sotilishi yildan yilga o‘smoqda. 2024-yilda 780 milliondan ortiq kitob sotilganligini ko‘rish mumkin, ularning asosiy qismi bosma nashrlar hisoblanadi. Ushbu madaniy chora-tadbirlar turli yoshdagi o‘quvchilarga muloqot, motivatsiya va o‘qish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Islandiyada esa o‘qish ijtimoiy-madaniy majburiyat sifatida qabul qilinadi, bu mamlakatda dunyodagi eng ko‘p kitob do‘konlari va ayni paytda eng yuqori nashriy salohiyat mavjud; aholi tarkibining taxminan 10 % i kitob yozadi yoki nashr qiladi, har yili “Yangi yil kitob bo‘roni” deb nomlangan an’anaga ko‘ra noyabrdan boshlab yangi kitoblar katalogini har bir xonadonga tarqatish urf bo‘lgan va bu odat oilalarni yangi kitoblar bilan tanishtirib boradi. Shvetsiyada yosh bolalar uchun bosma kitob va yozma mashqlarni rag‘batlantirish, raqamli muhitdan muvozanatli foydalanish siyosatini olib boradi.

Tailandda 88 % o‘quvchilar kitob o‘qiysizmi? degan so‘rovga ijobiy javob beradi. Bu ko‘rsatkichlar ijtimoiy kutubxonalar, matbaa va hukumat siyosati tomonidan rag‘batlantiriladi. Arab mamlakatlarida mavjud bo‘lgan o‘qishga chorlovchi chellenjlar yoshlarni yiliga o‘nlab kitob o‘qishga rag‘batlantiradi. Bu kabi mamlakatlarda o‘qish shaxsiy odatdan tashqariga chiqib, ijtimoiy majburiyatga aylangan. Islandiya va Hindiston tajribasi buni aniq ko‘rsatadi.

Jahon tajribasidan kelib chiqqan holda O‘zbekistonda, xususan, Surxondaryoda kitobxonlikni rivojlantirish uchun quyidagilarni tavsiya etish mumkin: Hududlar kesimida madaniy musobaqalar va tanlovlar tashkil etish (masalan, yoshlar va maktablar o‘rtasida “Yil o‘quvchisi” tanlovlari); Kutubxona va jamoat markazlarida kitob festivallari, rasmli hikoyalar kechalarini tashkil etish orqali kitobxonlik targ‘ibotini olib borish; mobil kutubxonalar orqali chekka qishloqlarga ham kitob yetkazilish; bolalarga mo‘ljallangan vizual hikoyalar, audiokitob xizmatlari va raqamli platformalar yordamida matnli resurslarni osonlashtirish; kutubxona tarmoqlarini mustahkamlash va o‘qish madaniyatini ijtimoiy normaga aylantirish.

Kadrlar masalasida malaka oshirish va qayta tayyorlash jarayonlarining yetarlicha tizimli emasligi, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklar, shuningdek, malakali mutaxassislarni sohaga jalb qilishdagi sustkashlik kabi muammolar aniqlandi. Kadrlar salohiyatini oshirish uchun muntazam o‘quv kurslari, seminarlar va stajirovkalarni yo‘lga qo‘yish, ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish kutubxonachilik sifatini sezilarli oshiradi.

Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kadrlar muammosini hal qilish uzluksiz o‘qitish, zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish, yosh mutaxassislarni jalb qilish, hamkorlik tarmoqlarini rivojlantirish va kutubxonachilikni jamiyatdagi intellektual markaz sifatida qayta shakllantirish orqali erishiladi. Surxondaryo viloyatida bu yondashuvlar asosida shakllantiriladigan strategiya nafaqat mavjud muammolarni bartaraf etadi, balki hudud kutubxonachiligini yangi bosqichga olib chiqadi.

Bu davrda mamlakatimizda kitobxonlik darajasining pasayishiga yoshlar orasida internet va ijtimoiy tarmoqlarga qiziqishning ortishi, zamonaviy axborot iste’moli shakllarining o‘zgarishi va kitob targ‘ibot ishlarining yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi kabi omillar ta’sir ko’rsatdi.

Kutubxonalar kitobxonlik madaniyatini oshirishda faol vositachilik rolini o‘ynashi lozim, bu borada targ‘ibot-tashviqot ishlari, interaktiv o‘quv dasturlari, adabiy uchrashuvlar va tanlovlarni muntazam tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Foydalanuvchilar uchun qulay sharoit yaratish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish kitobxonlar sonini ko‘paytirish va ularning qiziqishini oshirishga yordam beradi. Kutubxona fondlarini yangilashda mahalliy va xorijiy nashrlar, elektron kitoblar va multimedia resurslaridan kompleks foydalanish foydalanuvchilarning turli toifadagi axborot ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi.

Kitobxonlik darajasini oshirish milliy ma’naviyat va intellektual salohiyatni yuksaltirishning muhim sharti bo‘lib, bu jarayonda kutubxonalar strategik ijtimoiy-madaniy institut sifatida yetakchi rol o‘ynashi zarur.

ADABIYOTLAR

1. *"LIANZA Professional Recognition Recipients – LIANZA". www.lianza.org.nz. Retrieved 3 October 2024.*
2. EIFL. "Initiative for Young African Library Innovators (IYALI)". *Electronic Information for Libraries*. Retrieved 2020-05-28.
3. *"Bibliomist - Ukraine global libraries program". USAID. Archived from the original on October 25, 2024. Retrieved 2021-02-27.*

4. "Council of Australian University Librarians". *Australian Library and Information Association*. 2021. Archived from the original on 16 August 2000. Retrieved 12 April 2020.
5. The Times**.** (2024). *Why Irish libraries offer so much more than books*. Link
6. Global English EditingBooks & Reviewmalwarwickonbooks.com
7. The Times of IndiaGlobal English Editing.
8. "Arab Reading Challenge". Diversity of Cultural Expressions. 2017-12-04. Retrieved 2018-10-31.
9. www.oclc.org

